

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini statistik tahlili

Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li

Статистический анализ экспортного потенциала хозяйствующих субъектов

Боротов Шарофиддин Джумакул оглы

Statistical analysis of export potential of business entities

Borotov Sharofiddin Jumakul oglu

Received: May 2, 2025 Revised: May 6, 2025 ■ Accepted: May 9, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqot davomida 2020–2024 yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, eksport hajmi, sohaga qarab taqsimoti va dinamikasi aniqlangan. Tahlillar natijasida viloyat eksportining asosan yirik korxonalar hisobiga amalga oshayotgani, kichik va o'rta tadbirkorlikning esa bu jarayonda ishtiroki past ekani ko'rsatib o'tildi. Maqolada shuningdek eksport salohiyatini oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillar tahlil qilinib, istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik subyektlari, eksport salohiyati, statistik tahlil, Surxondaryo viloyati, kichik biznes, eksport dinamikasi, iqtisodiy rivojlanish.
- **Abstract.** This article presents a statistical analysis of the export potential of business entities in the Surkhondaryo region. The study is based on official statistical data from 2020 to 2024, examining export volumes, sectoral distribution, and development dynamics. The analysis reveals that the region's exports are primarily driven by large enterprises, while the involvement of small and medium-sized businesses remains limited. The paper also identifies key constraints affecting export growth and proposes recommendations for enhancing the export capacity of local businesses.
- **Keywords:** Business entities, export potential, statistical analysis, Surkhondaryo region, small business, export dynamics, economic development.

KIRISH

Tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, eksport faoliyati orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda uning o'rni beqiyosdir. Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy

resurslardan samarali foydalanish va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subyektlari soni ortib bormoqda. Biroq, ularning eksport faoliyatidagi ishtiroki hali to'liq ochilmagan va mavjud salohiyat to'liq ishga solinmagan. Bu holat viloyat eksport imkoniyatlarini chuqur o'rganish va baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy muammo ko'tarilmogda: Surxondaryo viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining

eksport salohiyati qay darajada shakllangan va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Surxondaryo viloyati misolida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini statistik jihatdan o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Surxondaryo viloyatidagi tadbirkorlik subyektlari tarkibi va turlarini aniqlash;
- Ularning eksport hajmi va dinamikasini yillik kesimda o'rganish;
- Eksport faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar hamda mavjud cheklavlarni aniqlash va ularni bar-taraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining geografik joylashuvi, qo'shni davlatlar bilan yaqin iqtisodiy aloqalari va tabiiy resurslarga boyligi viloyat eksport salohiyatini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Ammo mavjud statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari eksport bozoriga chiqishda hali ham muayyan to'siqlarga duch kelmoqda. Bu to'siqlar — logis-tika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, eksport jarayonidagi byurokratik to'siqlar va axborot tanqisligi bilan bog'liqdir.

Shu boisdan, mazkur tadqiqotda nafaqat statistik ko'rsat-kichlar tahlil qilinadi, balki mavjud muammolar chuqur o'rganilib, eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqiladi. Bu esa kelgusida viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qilishi mumkin.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini o'rganish uchun tav-sifiy va qiyosiy statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Aso-siy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Surxondaryo viloyati hokimligi va Savdo-sanoat palatasi tomonidan taqdim etilgan 2020–2024 yillarga oid rasmiy statistik manbalardan olindi. Tahlil eksport hajmi va dinamikasini baholash, eksport tuzilmasini sohalar kesimida aniqlash hamda vaqt qatori asosida o'zgarishlarni kuzatishga qaratildi. Eksport qilinayotgan mahsulot turlari, faol tarmoqlar va yillik o'sish sur'atlari asosida viloyat eksport faoliyati-nining umumiy ko'rinishi shakllantirildi.

Tadqiqot davomida mavjud ilmiy adabiyotlar ham o'rganildi. Xususan, X. T. Abdullayev kichik biznesning eksportga chiq-ishidagi to'siqlar va davlat ko'magining rolini yoritgan, G. M. Karimova esa eksport geografiasini kengaytirish va mar-keting salohiyatining ahamiyatini ta'kidlagan. Xorijiy tad-qiqotchilardan Porterning raqobat ustunligi nazariyasi va

OECD hisobotlarida eksport salohiyatini oshirishda infratuz-ilma, inson kapitali va innovatsiyalar muhim omillar sifatida ko'riladi. Ushbu ilmiy qarashlar Surxondaryo viloyatidagi amaliy holat bilan solishtirilib, eksport faoliyatiga ta'sir qiluv-chi omillar chuqur o'rganildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2024 yillar davomida Surxondaryo viloyatida tadbir-korlik subyektlarining umumiy sonida ijobiy o'sish tenden-siyasi kuzatildi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ayniqsa xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va savdo sohalarida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta korxonalar soni sezilarli darajada ortgan. Ushbu ko'rsatkichlar viloyatda tadbirkorlik uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, soliq imtiyo-qlari va institutlarning qo'llab-quvvatlovchi dasturlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, yirik ishlab chiqaruvchilar soni nis-batan barqaror bo'lib qolmoqda, ammo aynan ular eksport faoliyatining asosiy qismini tashkil qilmoqda.

Eksport hajmi yil sayin ortib borayotgani kuzatilmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, eksportning asosiy qismini qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa meva-sabzavotlar, tok mahsulotlari va poliz ekinlari tashkil etmoqda. Shuningdek, to'qimachilik sanoatining ulushi ham yuqori bo'lib, paxta tolasi, gazlama va tayyor kiyim-kechaklar xorij bozorlariga yo'naltirilgan. Bu sohalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va an'anaviy eksport yo'nalishlari viloyat eksportining barqarorligini ta'minlab bermoqda. Shu bilan birga, sanoatning boshqa tar-moqlari, masalan oziq-ovqat, kimyo yoki farmatsevtika soha-lari eksportda unchalik faollik ko'rsatmayapti.

Ushbu jadvalda 2020–2024 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining soni, umumiy eksport hajmi, yetakchi sohalarining (qishloq xo'jaligi va to'qimachilik) eksportdagi ulushi, shuningdek, yirik korxo-nalar va kichik biznes subyektlarining eksportdagi hissasi aks ettirilgan. Jadval viloyatdagi eksport salohiyatining rivojlan-ish dinamikasini baholash va kichik biznesning faol ishtirokini tahlil qilish imkonini beradi.

Eksport faoliyatining tuzilmasini tahlil qilish shuni ko'rsat-diki, viloyatdagi eksportning katta qismini yirik korxonalar amalga oshirmoqda. Ularning tashqi bozorlarga chiqishdagi imkoniyatlari, moliyaviy resurslari va logistika infratuzilma-siga ega ekani ularga raqobat ustunligi yaratmoqda. Aksin-cha, kichik va o'rta biznes subyektlarining eksport faoliyati sezilarli darajada cheklangan bo'lib, ular asosan ichki bozor bilan cheklanmoqda. Bunga sabab sifatida tashqi savdo uchun zarur huquqiy, moliyaviy va texnik infratuzilmalarning yetarli emasligi, marketing va axborot resurslarining chek-langnligi keltirilmoqda.

2-jadval

O'rtacha hisoblangan oylik ish haqining (yillik, so'mda)

YIL	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SONI	EKSPORT HAJMI (MLN USD)	QISHLOQ XO'JALIGI ULUSHI (%)	TO'QIMACHILIK ULUSHI (%)	YIRIK	KICHIK BIZNES ULUSHI (%)
2020	15,2	210.5	42.5	33.1	72.4	27-Jun
2021	16,35	230.8	43.2	34.0	71.8	28-Feb
2022	17,5	248.6	44.1	35.2	70.9	29-Jan
2023	18,7	267.9	45.3	36.5	70.0	30.0
2024	19,9	289.4	46.0	37.8	68.7	31-Mar


Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Tadqiqot doirasida yig'ilgan statistik ma'lumotlar asosida eksport hajmining o'zgarish dinamikasi, sohalar bo'yicha taqsimot va yirik hamda kichik subyektlar o'rtasidagi tafovutlar maxsus jadvallar, grafiklar va diagrammalar orqali vizual tarzda taqdim etildi. Bu ko'rsatkichlar asosida viloyat eksport faoliyatida qanday sektorlar yetakchilik qilayotgani va qaysi yo'nalishlarda salohiyat to'liq ishga solinmayotgani aniqlandi. Ushbu natijalar keyingi muhokama bo'limi uchun tahliliy asos vazifasini bajaradi va istiqboldagi rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur diagrammada 2020–2024 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va yirik korxonalar eksportdagi ulushining o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, kichik biznesning eksportdagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda, biroq hali

ham yirik korxonalar ustunlik qilmoqda. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari oshib borayotganini ko'rsatadi, ammo ularning to'liq salohiyatidan foydalanilmayotganini ham anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mahsulotlarining eksportdagi ustunligi viloyat iqtisodiyotining xomashyo va qayta ishlashga yo'naltirilganligini aks ettiradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosan yangi mevalar, sabzavotlar va quritilgan mahsulotlar ko'rinishida eksport qilinadi, bu esa mavsumiylikka yuqori darajada bog'liq. To'qimachilik mahsulotlarida esa yarim tayyor paxta mahsulotlari ustun bo'lib, tayyor mahsulotlar eksporti nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa qo'shimcha qiymat yaratuvchi sohalarida ishlab chiqarish zanjirlarining yetarlicha rivojlanmaganidan darak beradi.



1-rasm. Surxondaryo viloyatida kichik va yirik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi (2020–2024 yillar)

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Bundan tashqari, kichik va o'rta biznes subyektlarining eksportda ishtiroki yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, hali ham yirik korxonalarga nisbatan ancha past darajada qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarning tashqi bozorga chiqishida moliyalashtirish, sertifikatlash, logistika va axborot resurslari yetishmovchiligi asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, eksport salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishi uchun bu sohalarida tizimli islohotlar va qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Olingan natijalar asosida keyingi bo'limda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati yil sayin ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Eksport hajmi va faoliyatda ishtirok etayotgan subyektlar soni o'sib borayotganiga qaramay, mavjud salohiyatning to'liq ro'yobga chiqarilmaganligi aniqlanmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari eksportda hali ham yetarli darajada faol ishtirok etmayapti. Bu holat viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari va resurslaridan samarali foydalanish darajasini pasaytiradi.

Kichik va o'rta biznesni eksport faoliyatiga faol jalb etish uchun ular uchun qulay muhit yaratish, texnik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Xususan, eksport bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtirish, sub-sidiyalar ajratish, xorijiy bozorlar talablari bo'yicha treninglar tashkil qilish kabi chora-tadbirlar kichik biznesning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, mahsulot sertifikatlash, eksport hujjatlarini rasmiylashtirish va tashqi savdo risklarini sug'urtalash borasida davlat tomonidan amaliy yordam zarur.

Eksport salohiyatini to'liq ishga solish uchun infratuzilma — ayniqsa logistika, saqlash omborlari, transport tarmoqlari va bojxona xizmatlari — zamonaviy talablarga moslashtirilishi kerak. Bundan tashqari, eksportga chiqishni istagan tadbirkorlar uchun maxsus axborot-maslahat markazlari, eksport bozorlariga kirish strategiyasi bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu kabi xizmatlar eksport boshlovchilariga yo'l ko'rsatuvchi va ularni rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda eksport faoliyatiga ta'sir qiluvchi

ichki va tashqi omillarni chuqurroq o'rganish, so'rovnomalari o'tkazish, subyektiv fikrlarni yig'ish hamda sifatli tahlil metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, sektorlar kesimidagi eksport imkoniyatlarini o'rganish, yangi mahsulotlar va yangi bozorlar topish istiqbollari ham alohida tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin. Bu yondashuvlar nafaqat ilmiy asosda xulosa chiqarish, balki amaliy yechimlar ishlab chiqish imkonini ham beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi / Боротов Шарофиддин Джумакул оглы Институт предпринимательства и педагогики Денова, кафедра цифровой экономики старший преподаватель / Borotov Sharofiddin Jumakul oglu Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denova, Department of Digital Economy Senior Lecturer

► sharofiddinb3@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-6644-9306>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Abdullayev, X. T. (2019). Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
- [2]. Karimova, G. M. (2020). Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish va marketing strategiyalari. "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy jurnali, №3, 45–51.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2020–2024). Hududlar kesimida tashqi savdo statistik ko'rsatkichlari. Rasmiy veb-sayt: <https://stat.uz>
- [4]. Surxondaryo viloyati hokimligi. (2024). Viloyatdagi tadbirkorlik subyektlari va eksport faoliyati bo'yicha hisobotlar. Termiz.
- [5]. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi. (2023). Eksport qiluvchi korxonalar reestri va tahlili. Toshkent.
- [6]. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
- [7]. OECD. (2020). Enabling SMEs to Export: Policy Guidance. OECD Publishing. Retrieved from <https://www.oecd.org>
- [8]. World Bank. (2021). Uzbekistan: Country Economic Update. Washington, DC: World Bank Group.